

**SOLIQ QARZDORLIKLARNI VUJUDGA KELISH SABABLAR  
HAMDA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*Mustaqil izlanuvchi*

*Abdulkarimov Xurmat Matyakubovich*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish, soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish va ta‘limni yaxshilash, soliq tizimi va tartiblarini soddalashtirish, soliq to‘lovchilar va soliq organlari o‘rtasida samarali aloqa kanallarini rivojlantirish soliqlarni undirish mexanizmlarini takomillashtirish. Bundan tashqari, adolatga bo‘lgan ishonch va idrokni shakllantirish va samarali majburlov choralarini qo‘llash ham muvofiqlikni oshirishi munosabatlarni rivojlantirish tendentsiyalarini hamda soliq va yig‘imlar bo‘yicha soliq qarzdorliklar yuzaga kelishining asosiy sabablarini nazariy va amaliy jihatlar yoritib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *soliq qarzi, boqimanda, kadastr qiymati, shaxsiy kartochka, soliq elementlari, byudjet salohiyati, mahalliy byudjet, mahalliy byudjetlar xarajatlari, sud ijrosi, qarz beruvchi, kreditor, debitor.*

**Kirish:** Davlatimizning hozirgi kundagi tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab quvvatlash hamda ular faoliyatini erkinlashtirish jarayonida turli tekshirishlarni kamaytirish, soliqlar va yig‘imlarning ular faoliyatiga ta‘sirini kamaytirish, ya‘ni mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar har qanday xo‘jalik sub‘ekti to‘layotgan solig‘i unga to‘la-to‘kis iqtisodiy erkinligini ta‘minlashga asos bo‘lishiga erishishi bugungi kundagi soliqqa tortish tamoyillarining eng asosiysi ekani hech kimga sir emas. Mustaqillikka erishgan daslabki yillarimizdanoq, qarzdorlikning, ayniqsa, soliq qarzdorlikning o‘shishini oldini olishga katta ahamiyat berilmoqda. Qarz beruvchi va qarz oluvchilar, kreditor va debitorlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy-me‘yoriy asoslar yaratildi. Ko‘rilayotgan

qatiy chora-tadbirlar tufayli, soliq idoralarining byudjetga va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalariga soliq summalarini undirishdagi faolligi muayyan ijobiy natijalar bermokda.

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo'nalishlari bo'yicha bu borada davlatimiz rahbari "2019-yildagi yangi soliq siyosati doirasida ish haqiga soliq yuki 1,5 barobar kamaytirilganligi, natijada rasmiy sektorda ishlayotganlar soni yil davomida 500 mingtaga ko'paydi. Islohotlarimiz natijasida o'tgan yili 93 mingta yoki 2018 yilga nisbatan qariyb 2 baravar ko'p yangi tadbirkorlik sub'ektlari tashkil etildi. Shuningdek, 2020-yildan boshlab yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga asosan, tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ortiqcha to'langan yoki soliq organi tomonidan asossiz undirilgan soliq to'lovlari o'z muddatida qaytarilmasa, unga Markaziy bankning asosiy stavkasi bo'yicha byudjetdan foiz hisoblagan holda hisobraqamiga qaytarib beriladi."– deya ta'kidladi.

Respublika iqtisodiyotining rivojlanishi uchun iqtisodiy sog'lom muhit zarurligi sababli, o'z majburiyatlarini bajarishga intilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun tegishli choralar qo'llash, ularga qulay shart-sharoitlar yaratish zarurligi belgilab olindi.

Soliq tizimi o'zining fiskal (g'aznani to'ldirish) funksiyasini bajarish jarayonida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan turli sharoitlarda uchrashadi. Uchrashuvlarning eng ko'p va muammoli holati bu xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalardan bo'lgan soliq qarzlarni undirish holatidir. Avvalo qarzdorlik va soliq qarzdorlikning o'z nimaligini tushinib olishimiz zarur. Shuningdek,

qarzdorlik - soliq, hisoblab yozilgan penya va qonunlarni buzganlik uchun qo'llangan jarima sanksiyalarining butun summasi.

soliq qarzdorlik - byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lash uchun hisoblab yozilgan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlarning ularga doir to'lash muddatlari o'tganidan so'ng to'lanmagan summasi;

Bugungi kunda iqtisodiyot tirik organizmga o'shatilmoqda. Sababi, tirik organizmning qaysidir bir joyi o'z faoliyatini bajarish jarayonida sal sustlashsa u albatta butun organizmga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Davlat iqtisodiyotning rivojlantirish uchun uni bo'lim yoki bo'g'imga bo'lib bo'lmaydi. Soliq to'lovchilar tomonidan soliq va yig'imga to'lamaslik birinchi navbatda davlat byudjeti daromadlarining pasayishiga ta'sirini ko'rsatadi. Oqibatda, davlat tomonidan sarflanadigan harajatlarni qoplanishi uchun yig'iladigan mablag' boshqa soliq to'lovchilar zimmasiga yuklanadi. Bir korxonaning o'z vaqtida soliq to'lamasligi xoh u katta korxonalar, xoh kichik korxonalar bo'lsin boshqa korxonalar soliq yukini ortishiga sabab bo'ladi. Soliq va yig'imga bo'yicha soliq qarzdorlikning paydo bo'lishiga asosiy sabab, soliq to'lovchilarning to'lov qobiliyatini pasayishidir.

Soliq to'lovchilar tomonidan soliq va yig'imga to'lamaslik birinchi navbatda davlat byudjeti daromadlarining pasayishiga ta'sirini ko'rsatadi. Oqibatda, davlat tomonidan sarflanadigan harajatlarni qoplanishi uchun yig'iladigan mablag' boshqa soliq to'lovchilar zimmasiga yuklanadi. Bir korxonaning o'z vaqtida soliq to'lamasligi xoh u katta korxonalar, xoh kichik korxonalar bo'lsin boshqa korxonalar soliq yukini ortishiga sabab bo'ladi. Soliq va yig'imga bo'yicha soliq qarzdorlikning paydo bo'lishiga asosiy sabab, soliq to'lovchilarning to'lov qobiliyatini pasayishidir. Shu sabablar bartaraf etilsa iqtisodiyotda muvozanatni saqlab turish mumkin.

Xo'jalik yurituvchi korxonalar va tashkilotlar soliq to'lamasa, yuqorida keltirilgan omillardan boshqa omillarga ham ta'sirini yuqoridagi jadvaldan qisqacha ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

- korxonalardan undiriladigan soliq va yig'imga to'lovlar bo'yicha yig'iluvchanlik darajasi pasayib, davlat byudjeti daromatlari kamayadi, oqibatda davlat o'zining majburiyatini o'z vaqtida bajara olmaydi;
- davlatning ichki va tashqi himoyasi zaiflashadi;
- aholining davlat tomonidan ijtimoiy himoya qilinadigan qismi ma'lum miqdorda ijtimoiy himoyasiz qoladi;

- davlat o'z siyosatini to'liq yurgiza olmaydi;
- aholining davlatga bo'lgan ishonchi kamayadi;
- turmush darajasining pasayishi esa, jinoyatlarning ko'payishiga olib keladi.

Umuman olganda, soliq to'lovchilar tomonidan to'lanmagan har qanday mablag' davlatning iqtisodiy salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu to'lanmayotgan soliqlar yoki soliqlarni hisob-kitobi va undirilishida Davlat soliq xizmati organlari zimmasiga quyidagi majburiyatlar yuklatilgan:

- soliqlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar to'g'ri hisoblab chiqilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilish;
- soliqlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash, soliq bo'yicha majburiyatlarni bajarishlarida yordam ko'rsatish;
- soliq siyosatining ro'yobga chiqarilishida bevosita qatnashish;
- soliqqa tortiladigan ob'ektlar va sub'ektlarning to'liq hamda o'z vaqtida hisobga olinishini ta'minlash;
- soliq bo'yicha huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, soliq va yig'imlar bo'yicha soliq qarzdorliklarning paydo bo'lishini oldini olishda soliq siyosati, shu bilan birga, soliq organlarining roli ham juda katta. Amaliyotda soliq organlari davlatning soliq siyosatini ro'yobga chiqarishda asosiy organ sifatida faoliyat ko'rsatadi. Avvalambor, soliq to'lovchilarga soliqlarning ijtimoiy ahamiyati va mohiyati to'g'risida to'liq, keng hamda doimiy ravishda tushuntirish ishlari olib borilishi kerak. Shu bilan birga, soliqlarni hisoblash va to'lash mexanizmini tushuntirish lozim. Soliqlar esa uni to'lovchilarga tushunish, soliqlarni hisoblash sodda bo'lishi va to'lov muddati soliq to'lovchiga qulay bo'lishi lozim. Ana shunda soliq va boshqa maqsadli to'lovlar bo'yicha soliq qarzdorliklar bo'lmaydi.

**Respublika bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar bo'yicha soliq qarzdorlik dinamikasi<sup>1</sup>.**

<b>Yillar</b>	<b>2019 y</b>	<b>2020 y</b>	<b>2021 y</b>	<b>2022 y</b>	<b>2023 y</b>
Ro'yhatdan o'tgan korxonalar	100%	100%	100%	100%	100%
Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar	96,0%	91,2%	82,3%	83,4%	86,0%
Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar	4,0%	8,8%	17,7%	16,6%	14,0%
Soliq qarzi bor korxonalar	66,3%	68,4%	81,0%	79,3%	77,3%
Shundan	100%	100%	100%	100%	100%
Vazirligi bor korxonalar	64,3%	71,3%	74,6%	79,2%	76,8%
Boshqa korxonalar	35,7%	28,7%	25,4%	20,8%	23,2%
shundan	100%	100%	100%	100%	100%
Soliq qarzini to'lovchi kor.	83,3%	76,8%	74,1%	84,3%	70,6%
Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar	16,7%	12,0%	25,4%	14,5%	16,8%
hufiyona korxonalar			0,5%	1,2%	12,6%

Shu qonunchilikka asosan, mahsulot yuboruvchi korxonalar jo'natilgan mahsulotning qiymatidan, qolgan 85 fizini mahsulot oluvchi korxonalardan ololmaslik oqibatida debitor qarzdorlik ortib bormoqda. Shuning uchun 15 foizli oldindan to'lovni kamida 50% yoki umuman 100% qilib belgilansa, korxonalarda debitor qarzdorlik bo'lmas edi. Shunda korxonalarda sog'lom moliyaviy muhit yaratiladi va soliq qarzdorliklar vujudga kelmaydi. Mamlakat xududida barter operatsiyalari ta'qiqlangan bo'lsada amalda ko'p uchramoqda. Buning oldini olish uchun javobgarlik masalasini oshirish kerak.

<sup>1</sup> Муаллиф томонидан солиқ қўмитаси маълумотлари асосида тайёрланди.

- to'lov qobiliyatining pasayishi ham korxonaning to'lov qobiliyatini pasayishi uning aylanma mablag'larining yo'qligi, debitor qarzdorliklari ko'payib jo'natilgan mahsulotlar uchun mablag'ning o'z vaqtida kelib tushmasligi, ishlab chiqarilgan mahsulotlar bozorda raqobatbardosh emasligi, buning oqibatida mahsulotlar sotilmasligi, natijada korxonalar iqtisodiy jihatdan qiyin ahvolda tushib qolishiga olib keladi. Buni haqda yuqorida aytib o'tilganligi sababli kamroq to'xtalib o'tdik. Soliqlar bo'yicha adolatsizlik natijasida barcha soliq talablariga rioya qiladigan intizomli soliq to'lovchilar raqobatga dosh bermay qoladilar va bozordan ketishga yoki soliqlardan qochish yo'llarini izlashga majbur bo'ladilar. Ozod etishlar imtiyozli korxonalar va tashqilotlarga berilib, mahalliy bozorda raqobatni buzadi. Saralangan korxonalar uchun soliqdan ozod etishlar va imtiyozlar soliq bazasini kamaytiradi va shu tariqa boshqa korxonalarga soliq yukini ko'paytiradi.

To'lov qobiliyatining pasayib borishi, oxir oqibatda korxonani bankrotlikka olib boradi. Avvalo, soliq qarzdorlikni kamaytirish uchun shu holatlarga keltirivchi sabablarni topib uni oldini olish va ana shu sohada kamchilikka yo'l qo'ymaslik muhim ekanligini unutmasligimiz lozim. Xufiyona iqtisodiyot bilan shug'ullanib, noqonuniy daromad topayotgan korxonalar, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmay noqonuniy tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan fuqarolar iqtisodiyotga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Soliq to'lovchilarni ijtimoiy va siyosiy jihatdan himoya qilib, ularga qulay shart-sharoitlar yaratib berish, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi hamda soliq to'lovchilarga nisbatan g'amxo'rlikini bildiradi. Lekin bu doimiy davom etishi bozor iqtisodiyoti talablariga ziddir.

### **Xulosa va takliflar.**

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq qarzdorligini undirish ma'murchiligidagi har bir yo'nalishda soliqlarni majburiy undirish uchun nazorat ishlarini, ya'ni mas'ul bo'lgan tashkilot, idora va ayniqsa xizmat ko'rsatayotgan bank muassasalari javobgarligini kuchaytirish barobarida undirishga doir xarajatlarni kamaytirish maqsadida barcha bosqichlarni elektron shaklga o'tkazish, mavjudlarini yanada takomillashtirish joiz.

*Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:*

Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz).

Normurzayev, U. (2023). Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida moliya bozorining dolzarb muammolari tadbirkorlikni teng raqobat sharoitlarini yaratish hamda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish yo'lari. <https://inlibrary.uz/index.php/financial-market-growth/article/view/19032>

Normurzayev, U. (2023). Soliq imtiyozlari berish tartibini takomillashtirish masalalari. *Iqtisodiyot Va ta'lim*, 24(1), 334–339. [https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss1/a51](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a51)

Normurzayev, U. (2023). Yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda soliq organlarining ahamiyati. *Iqtisodiy Taraqqiyot va Tahlil*, 1(2), 215–221. Retrieved from <https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/66>

Normurzayev, U. (2023). O'zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirish va uning barqarorligini ta'minlash yo'llari. *Iqtisodiy Taraqqiyot va Tahlil*, 1(6), 177–182. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss6-pp177-182>

Normurzayev, U. (2022). Hukumatimiz tomonidan soliq ma'murchiligi bo'yicha 2018-2022-yillarda amalga oshirilgan soliq islohotlari natijalari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 10 (5), 325–330. [https://doi.org/10.55439/EIT/vol10\\_iss5/a35](https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss5/a35)